

BOLALIKNING SOG'INCH KITOBI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15648119>

Eshniyazova Ayimxan Sheripbayevna,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ayimxon.eshniyazova@mail.ru

orcid:0009-0000-9693-2029

Annotatsiya: Maqolada Xurshid Do'stmuhammadning avtobiografik xarakterdagi yangi asari "O'yin" romani, unda bolalik olami, bolalik o'yinlari va katta hayot o'yinlarining mohiyati tadqiq va talqin qilinadi.

Abstract: This article examines and interprets Khurshid Dostmuhammad's new autobiographical novel "O'yin" ("Game"). The work explores the world of childhood, childhood games, and the essence of the games played in adult life.

Kalit so'zlar: avtobiografik asar, ijodkor biografiyasi, roman, o'yin, bolalik, nakku, sog'inch, xotira, arqon.

Keywords: autobiographical work, author's biography, novel, game, childhood, nakku, nostalgia, memory, rope.

Kirish. Yozuvchi Nazar Eshonqul aytganidek, "bolalik – ijodkorning fantaziyasini tarbiyalaydigan va qanot beradigan davr. Bolalik xayollari butun umr yozuvchiga ruh, kuch va zavq bag'ishlaydi, ilhom va quvvat beradi, olamga hayrat ko'zi bilan boqishni o'rgatadi" [3, 222-b]. Yozuvchi, adabiyotshunos olim, tarjimon, siyosatchi, jurnalist Xurshid Do'stmuhammad bolalik xotiralariga asoslangan avtobiografik xarakterdagi "O'yin" romanini yaratdi. Romanda yozuvchining dunyoni bola nigohi bilan anglashi, bir umr dil tubida quyma oltin bo'lib yozuvchi diliga nur bag'ishlab turgan bolalik xotiralar, ota-ona, aka-opa, bolalik o'rtoqlari, ijodkor shakllanishida, katta hayot ta'limini olishida ma'lum hissa, ulushi bor insonlar taqdiri hikoya qilinadi. Yoshi ulg'aygan yozuvchining bu armonli dunyoda inson zamonga moslashib, zamon bilan hisoblashib, xotira va xayol, xotira va orzuning orasida yashashi xulosasini o'qiymiz. Roman yozuvchining bolalik xotiralariga asosida yaratilgani, asarning roviy qahramoni yozuvchining o'zi, qahramonlari oila a'zolari va mahalladoshlari, o'rtoqlari bo'lgani uchun avtobiografik asar deb ayta olamiz.

Asosiy qism. Adabiyotshunoslik ilmida ijodkor biografiyasi biografik metod asosida o'rganiladi. Bunda ijodkorning asarlari bilan birga ijodkor shaxsi, estetik ideali, kechinmasi, hayot tarzi, yashagan davri, muhiti bir butunlikni tashkil qiladi. Ijodkor ijodiy laboratoriyasi, adabiy estetik qarashlarining shakllanish omillari biografik metod asosida tadqiq qilingan. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning biografiyasi va ijodiy laboratoriyasini o'rganish, uning asarlari qatiga sindirilgan

mazmun-mohiyat, ramziy-majoziy tasvirlar ortida yaringan ma'no qatlamlari, yozuvchining ijodiy konsepsiyasi, badiiy ijod sirlari qulfini ochuvchi kalit vaziasini bajaradi. Yozuvchining ijodiy laboratoriyasi va asarlarini tadqiq qilish jarayonida adib bolalik xotiralar haqida asar yaratish niyatida ekanini aytgan edi. Mana shu avtobiografik roman yaratildi. Avtobiografik asarda hikoya qilish subyekti va uning obyekti bir-biriga mos keladi va muallif-qahramonning hayoti, malakasi va ijtimoiy faoliyati haqida tasavvur beradigan tarzda hikoya qilinadi. "Ijodkorning oila turmushi, qarindosh-urug'lari, do'st-birodarlari bilan munosabati, yashash tarzi, unga doir odatlar (jestlar), buyumlar va hakazolarni qamrab oladigan bu omil bir qarashda unchalik muhim tuyulmasligi mumkin. Lekin ijodkor hayotida ro'y beradigan g'ayrioddiy holatlar, olamshumul voqealarga nisbatan nihoyatda ko'p foizni tashkil etuvchi odatiy hayot tarzi bevosita maishiy turmush bilan bogliqki, bu ko'p jihatdan ijod namunalarda o'z muhrini qoldiradi" [4, 17-b].

Natijalar va muhokama. X.Do'stmuhammadning yangi chiqqan romani yozuvchining bolalik davri bilan birgalikda oila muhiti, ota-ona xarakteri, farzand kamolida ota-ona tarbiyasining ahamiyati, oila va mahallada yuz bergan voqealar fonida millat dardiga aylanib borayotgan davr muammolarini olib chiqadi. Roman sog'inch – bolalik sog'inchidan hikoya qiladi. Yozuvchining o'zi ta'kidlaganidek eng izzatli va eng o'zbekona tuyg'u sog'inch. Asar nomiga muvofiq bolalik va kattalar olamidagi o'yinlar parallel tasvirlangan. Voqealar xotiralar shaklida beriladi. Hayotning bolalik, oila, mahalla va vatan haqidagi gul qadalgan xotiralar parchasi. Bolalik o'yinlarining katta o'yinlarga tayyorlashi, faqat o'yin emas, katta musobaqa, to'qnashuv, ziddiyat, halollik, makkorlik va g'irromliklar borligi, yutish zavqi va yutqazish izzatli tasvirlanadi. Inson bolalikda dunyoni o'yin orqali ko'radi, kuzatadi. Yozuvchi bolalik o'yinlarini tupik ko'chadagi beshta bolaning o'yinlari bilan harakatlantiradi, kattalarning hayot o'yini bilan solishtiradi. Yosh avlod va katta avlodning o'yinida hamma narsa bor, adolat, tuhmat, hamma-hammasi mujassam. Yoshi ulg'aygan sari inson bu dunyoning o'yinlarini ilg'ab boradi. Romanda tasvirlangan adabiy makon Toshkentning Eski shahar qismi, ya'ni qadim va mo'ysafid Chig'atoy mahalladagi tor ko'chalar bolib, asardagi yana bir liniya, qizil ip mahallaning buzilishga tushishi va bir oiladay yashayotgan mahalla yoshlarining har tomonga sochilib ketishi arafasidagi holat, kayfiyat va voqealar qalamga olinadi.

X.Do'stmuhammad oilada to'qqiz farzandning kenjasi – uch aka, besh opaning ukasi bo'lgan. Mana shu kenja farzand romanning roviy qahramoni. Ismi Fazliddin ko'chaning eng odobli, "yaxshi bola"si, opalari uni erkalatib, "Fazli", "Pazli", "Pazi" deb chaqirishadi. Bola qahramonga Fazliddin ismining tanlanishi ham bejizga emas. Fazliddin ismidagi "fazl" – ijobiy hislat, fazilat, afzallik, ustunlik ma'nolarini beradi. Yana "fazl" so'zi isonning sharaflil fazilati, boshqa jonzoatlardan ustunligi mehr-u muhabbat va vafo egasi ekanligida deyiladi [5, 124-b.].

Roviy qahramon Fazliddinda boshqa bolalarda bo'lmagan fazilat, xislat bor edi. Bolalikdan yozuvchining xarakterida hamdardlik, achinish tuyg'usi kuchli

bo'lganini romanda mahallasiga ko'chib kelgan bechorahol oila Karomatning o'zi tengi o'g'li Baqoning yonini olishi, ko'cha oliftasining qaldirg'ochini o'ldirib qo'ygandagi holati, Baqoning oilasiga yordam berishni xohlashida ko'rinadi. Yozuvchi bolalikda musobaqa o'ynaganda kim yutqazsa unga ko'proq achinardi. Eng yaxshi ko'rgan o'yini "Qutqarmachiq" bo'lgan. Muallif dunyoni, odamlarni hamdardlik bilan qabul qilgan. Romanda Fazlining o'rtoqlari Lutfulla, Mirahmad, Xo'ja, Yahyo va ularning safiga keyin qo'shilgan Baqo edi. Fazli o'rtoqlari orasidagi munosabatlar maromini ushlab turuvchi, kelgindi Baqoning himoyachisi edi.

Romanda o'zbek xalqining donishmand ota va ma'suma onalari siymosini o'z ota-onasi qiyofasiga jamlaydi. "Mulla Najib" siymosida halollik, samimiylik, kamgaplik va o'zbek otalarining timsolini yaratdi. Yozuvchi suhbatlarida ota-onasi haqida shunday deydi: Otamiz rahmatli avval kolxozda, so'ng restoranda hisobchi bo'lib ishlaganlar, men dunyoga kelgan kezlar u kishi allaqachon qarilik nafaqasini olayotgan, kosibchilik orqasidan to'qqiz o'g'il-qizni voyaga yetkazganlar. Otamiz madrasa ko'rganlari sababmi yoki anchagina ziyoli inson bo'lganlari boismi, u kishiga "Mulla Nabi" deb murojaat qilishardi. Onamiz rahmatli o'ziga to'q oila farzandi bo'lganlar, ayni oila qurgan 20-yillar oxirida boshlang'ich sinflarda o'qituvchilik qilganlar... [6]. Romanda yozuvchi otasining ismini Mulla Nabi emas, "Mulla Najib", "Najib doda" deb nomlaydi. "Najib" so'zining oqil, hurmatga sazovor, aziz, mo'tabar, muhtaram singari ma'no qirralari bor. Bu hislatlar adibning otasi Mulla Nabi va roman qahramoni Mulla Najibda jamlangan.

Romanda adabiyotshunos olim, katta yozuvchining bolalik xayolotining kengligi, Yaratgan yuqtirgan iste'dodning kamol topishi oila muhiti, ota-ona tarbiyasi va o'gitlarining samarasi ekanini anglaymiz. Ota o'gitlarini yozuvchi romanga singdiradi. Yozuvchi suhbatlarda otasi – Mulla Nabi haqida samimiyat bilan yozadi: "To'qqiz farzand otamizning qo'lidagi so'zan-bigiz, onamizning qo'lidan tushmagan igna uchidan topilgan rizq-ro'z bilan oyoqqa turganmiz, katta hayotga yo'l topganmiz..." [1, 409-b.] Romanda Najib doda o'g'lining kelajagini shunday bashorat qiladi: "– *Xudo xohlasa, san o'qimishli, olim odam bo'lasan, o'g'lim. Kuning kosibchilikka qolmasin-u, lekin hozircha shuni o'rganib qo'ygin, demoqchiman, xolos. Sanga aytadigan gaplarim ko'p...*" [1, 193-b.]. Yozuvchi otasining ichki olami, xarakteri haqida: "*Otamdagi vazminlik, fikrga moyillik, mumkin qadar kamroq gapirishga urinish menga ma'qul kelgan ko'rinadi. Kinoya va tagdor ta'rifu kishining "kredosi" edi*" [2, 619-b.].

Romanda Najib dodani butun mahalla-ko'ydagilar, tanish-notanishlar aqlli, ziyoli odam deb hurmatini joyiga qo'yishadi. Romanda otaning kamgap va qattiqqo'l xarakterini yaratadi. Bu xonadonda otaning so'zi ikki bo'lmaydi. Ota bas dedimi, har qanday suhbat o'sha zahoti tugaydi. Oila shunday temir intizomga rioya qilardi. Muallif suhbatlarida aytgan Mulla Nabi shaxsiyati yaqqol akslangan voqeani romanga singdiradi. Bu voqea yozuvchi bilan yuz bergan edi, ammo romanda yozuvchining bolalik davri tasvirlangani sabab, voqeani otasining Izzat akasi bilan suhbatida beradi. Hayotiy voqeadan: "14-15 yoshimda otam bilan

yonma-yon o'tirib maxsido'zlik qilardik. Rahmatli, maxsining chokini tekis tikishdan tortib, chumagini, dastagini obi-tobiga yetkazmaguncha ko'ngillari joyiga tushmas edi. Bir kuni xunob bo'lib, "E, doda, bozordagi xaridorning bittasiyam maxsining sifatini, kam-ko'stini farqlamaydi, bilmaydi-ku, namuncha uni paypaslayverasiz!" – deb yuboribman. Qiblagohimiz uzoq jim o'tirdilar va nihoyat, bir mahal: **«Bozordagi xaridorlar bilmasa, sen o'zing bilasan-ku»**, – dedilar sekingina... [6] Najib dodaning falsafasi: "... yuvosh odammi sho'xligi, qaysarligi og'irroq kechadi" [1, 119 b.].

Yozuvchida so'zga mehr oilada boshlangan. Romanda Fazli uyida opalari bilan so'z o'yini o'ynashni yaxshi ko'rishi, aytilgan so'zning oxirgi harfidan boshlanadigan so'zlarni darhol aytishi, buzib aytiladigan so'zlardan misollar keltirish qizg'in tus olishi tasvirlanadi. Asarda yozuvchining Shukur va Izzat akalari bilan bo'lgan voqealar ham ibratli, ham zavqli. Fazlining Izzat akasiga havasi keladi, chunki u boshqacha o'ylaydi, hech kim anglamagan, xayoliga kelmagan voqealarni anglaydi, ko'ra oladi va boshqacha savollar beradi. Izzat akasi oila davrasida ovqat ustida shunaqa savol beradi: "– doda, ko'chamizmi janubi bozor, shimoli mozor, bunda bir hikmat yo'qmi?" Najib dodaning javobi: "– Aslida odammi umri bozor bilan mozor orasida o'tadi, Izzat, shu ko'cha, shu uyda shu-uncha yashab men ham o'ylab ko'rmagan ekanman. Yaqin atrofda qancha bozor bo'lsa shuncha mozor ham bor. Shuni bilib qo'yinglar, bozorda yurgan odam narigi tomonda uni mozor kutib turganini o'ylamaydi, xayoliga keltirmaydi..." [1, 215-b.] Otasining javobidan keyin Fazlining ko'z o'ngida Otasi ertaklarda tasvirlangan dono, donishmand chollardek ko'rinib ketdi.

Muallif voqea, xayolot, o'yin va bolaning o'z-o'zi bilan suhbatini asosida o'zining bolalik olami, bolalik dunyosini chizib beradi. Bola nigohi bilan olamni anglashga, bilishga harakat qilayotgan Fazlida yozuvchilikning ilk kurtaklari ko'rinadi: "U tengqur o'rtoqlari orasida rosayam ziyrak, kuzatuvchan, oilasidagilar bo'ladimi, qarindosh-urug'larmi, qo'ni-qo'shnilar, mahalladoshlarmi – hammasini tanib-bilib yuradi. Shunchaki yoki nomigagina tanimaydi-bilmaydi, balki u nihoyatda sinchkov – zimdan kuzatadi, o'rganadi, aqli yetganicha xulosalar yasaydi [1, 6-b.]. Yozuvchining bolalikdan kuzatuvchanligi, dunyoni teran nigohda anglashga harakati yozuvchilik qobiliyati, iste'dodi borligidan nishona edi. Yozuvchi kuzatishlari asosida "Nigoh", "Panoh", "Kuza..." qissalarini yaratdi. Yozuvchidagi kuzatuvchanlik hamma asarlari hikoya, qissa, romanlarida qizil ip bo'lib o'tadi.

Asarda qo'ni-qo'shni, qarindoshlar hayotiga ekskurs qilinadi. Urushda hayot-mamot o'yinida qatnashgan, joni omon qaytsa-da g'irrom o'yinda aldangan qahramon Hasan boboy obrazi tasvirlanadi. Hasan boboy fashistlarga qarshi jangda dom-daraksiz ketgan, ayoli Minov opoqi ko'zlari to'rt bo'lib necha yillar kutgan. Gitler yengilib, urush tugagandan o'n yetti-o'n sakkiz yil o'tganda, Hasan boboy bir holatda oilasi bag'riga qaytadi. Shuncha yil frontda beiz, bedarak ketgan odam ko'chaga bosh ko'tarib chiqolmay qolgan. Davomli sog'inch va tahlika ustiga kelib tushgan bu sharmandalik Minov opoqini savdoyi qilib qo'yay degan.

Fazli bu voqealarni onasining hikoyalaridan bilib olgan. Endi Fazli Hasan boboydan dam jirkanib ketar, dam unga achinar, Minov opoqining jazavalari bevaj-besabab emasligini o'zicha tushunishga urinardi. Roman voqealari davomida Hasan boboy vafot etadi. Uyining oldida o'tirgancha jimgina dunyodan ko'z yumadi. Katta hayot o'yinida Hasan boboy o'zi xohlamagan holda aldangan, yutqazgan edi. Romanda oila boshlig'ining yutug'i, oilaning yutug'i degan xulosani beradi. Choli bilan birga Minov opoqi ham katta hayot o'yinida yutqazgan, choline mag'lubiyati uni alamzada qilib qo'ygan edi. Shuning uchun Hasan boboyga Fazlining rahmi keladi, achinadi.

Karomat mahallaga ko'chib kelgan darbadar, beva ayol. Beshta farzandning tashvishida hayotning achchiq zahmatini ko'p tatigan. Karomat ona o'z hayoti haqida: *"Ko'chish-ko'chish qurib ketsin o'yinga o'xshamay, ijarama-ijara ko'chmanchilikning oti o'chsin... To'rt o'g'il, bir qizining ismi-sharifi bir xil – kegindi, ko'chmanchi, qishloqi"*. Karomat aya bolalarini yupatish, zaharli qismat tegirmonining mashaqqatlaridan butun chiqish, g'urbat-u nadomatni unutishning birdan bir chorasi o'yin ekanligini anglagan edi. U bolalarini ochlik azobidan "qorin ochmadi-ochmadi", "bexarxasha-bexarxasha", "tamshanma-tamshanma" o'yinlari bilan chalg'itardi. Karomat onaning falsafasi: *"Bachalar qay o'yinga berilsalar, o'sha o'yin hayotlariga ko'chadi"*.

Asarda Halim oqsoqolning o'rtancha o'g'li Ziyo do'xtirlikka o'qiydi. Keyin Moskvada davom ettirib, olim bo'ladi. Ziyo do'xtir Moskvadan tuzalmas dard orttirib keladi. Ko'ksov xastaligiga chalinadi. Endi odamlarga yordami tegadigan, hayotda zavqlanib yashaydigan vaqti kelganda, o'zi yordamga muhtoj, xastaga aylandi. Hayotning beshavqat o'yinida yutuqni qo'lga olganda, rohatini ko'rib, zavqini his qilolmadi. G'oliblik nashidasi tatimadi. U baribir jamiyatdan oldinda, fikrlaydigan, hayotning mantig'ini biladigan qahramon. Fazlining To'xtaboy aqasi hayot o'yiniga g'arq bo'ldi. Hali oila qurishga ulgurmagandi. Yosh joni uvol ketdi, hayot o'yinini erta tark etdi. Yozuvchi hayotning past-baland o'yinini insonlar taqdiri bilan ochib beradi.

Mahalla hunarmandlar makoni, hunarmandlik esa qonunsiz daromad degani. Har bir xonadon oila a'zolari u yoki bu tirikchilik bilan band. Buni el-yurt biladi, moliya biladi, mahalla faollari biladi, uchastka noziri-melisa biladi, lekin hamma o'zini bilmaganlikka oladi. "Bari – o'yin – deb ich-ichidan kuladi Najib doda. Bu o'yinni o'zicha nomlaydi: "Bilmayman" o'yini deydi, "Ko'rmayman" o'yini deydi, "Bexabarman" o'yini deydi. o'yin bo'lgach, kimdir g'oliblik nashidasini sursa, yana kimdir mag'lublik alamini tortadi. Boshqa iloji yo'q" [1, 153-b.]. Najib doda ikki marta mag'lubiyat alamini chekdi, bunisi rost. Najib doda mahalla guzarida kunda-kunora chaqirilayotgan majlisbozlikni ham o'yin deb biladi.

Roman voqealari sarlavhalarga bo'linadi. Sarlavhalarga berilgan nom voqealar mohiyatini asoslaydi. Jumladan: "Nakku" – "tashqi olam" va "ichki olam" uchrashadigan joy va bu joy Fazlining ichida kechayotgan g'alayonlarni tartibga solishga yordam beradi. Televizordan bo'shagan qog'oz idishni o'ziga nakku qilib oldi. U nakkuxonasida hammani kuzatadi, o'ylaydi, mulohaza qiladi va

hatto xayolida ota-onasi haqida kino oladi. “U – televizorda emas, bizning, o‘zimizning hovlimizdagi, faqat mening ko‘zimga ko‘rinadigan kino! ... Ana Najib doda ko‘chadan kirib keldi. Munis ona choliga peshvoz chiqdi, tovushi eshitar-eshitilmas salom berdi... Najib doda bir nuqtaga tikilgancha chuqur o‘yga toladi. Choy, choynak va piyolaga termulib o‘tirib, shunchalar og‘ir o‘ylarga tolishi mumkinmi, odam?!” [1, 220-b.]

Romanning “Muhr” qismida yozuvchining bir umr xotirasida muhrlangan bolalik ko‘chasidagi insonlar taqdiri eslanadi. Bolaning kuzatishlarini Ziyo do‘xtir o‘z mulohazalari bilan xulosalab beradi. Hasan boboy vafotidan bir necha kun o‘tib, hali kun yorishmay chaqiriq eshitaladi. Bu chaqiriq yettinchi tupik ko‘cha bolalarining Hasan boboyni esdan chiqamasliklari, xotira abadiyligi ishora. Yozuvchini yozishga undagan kuch, romanga aylangan xotiralar va hayotida muhrlangan insonlar taqdiri haqidagi dil so‘zlari Ziyo do‘xtir tilidan aytiladi. *“Yettinchi tupikda ulg‘ayayotgan bolakaylar Hasan boboyni unutadi deb o‘ylaysanmi?! Minov opoqining chakak qoqishlarini unutamini?! Vaziz posonning tong saharlab xotini bilan vidolashayotgandek xayrlashishini, oqshom oyoqda turolmay qiltillab qaytishlarini ko‘z o‘ngidan o‘chirolmaydi!.. Chunki bularning bari bolalik taassurotlari! Har bir voqea-hodisa, har bir odam, quloqqa chalingan har bir so‘zdan tug‘ilgan taassurotlar o‘chib ketmaydigan muhr! Chig‘atoyning tarixi shu bolakaylarning miyasiga bosilgan o‘sha muhrda, muhrlarda yozilib qoladi”* [1, 306-307-b.]. Ziyo do‘xtir Vaziz posonning o‘g‘li Baxtiyorning uydan bosh olib ketishining sababini topganday bo‘ladi: “Baxtiyorni isnodga qo‘ygan ota-onasi – poson bilan, posonning es-hushini o‘g‘irlagan Marvarid kennoyining bitmas-tuganmas noz-karashmasi-yu ishvasida!..” Kitobxonda Vaziz poson oilasidagi yuz bergan voqeadan oiladagi muhit, ko‘zga korinmas rishtalar, ota-ona munosabatlari, hammasi shu oila farzandlarining inson sifatida shaklanishida o‘zini ko‘rsatadi xulosasini beradi.

“Aarvo” – fasliga Ziyo do‘xtirning Aarvo ismli eston do‘stining ismi berilgan. Bu faslda Ziyo do‘xtir do‘sti Aarvo bilan Vatan, Yurt istqiboli haqida suhbatlashadi. El-yurti uchun hayotda mard bo‘lib yashashga do‘sti bilan Estoniyaning eng baland cho‘qqisida turib erkakchasiga ont ichishadi, ahdnomalar tuzishgan. Ziyo do‘xtir elda qo‘rqmas, mard yigitlar ko‘paysagina xalq bo‘lishini his qiladi. Shuning uchun ham Doston ayaning uyiga nevarasi Jamolni ko‘rishga boradi, uning nazdida kichik nevaraning adolatsizlikka qarshi yoshiga munosib qarshilik ko‘rsatishi bu katta jasoratning uchquni. Demak, xalq bo‘lishga umid bor. Nevara haqida eston do‘sti Aarvoga telefonda aytadi. “... O‘zbekmi, estonmi, qozoqmi, avarmi, Jamolga o‘xshash qo‘rqmas mard yigitlari ko‘paysagina xalq bo‘ladi...”. Jamol haqida do‘stiga aytib berganida do‘sti qayta aytib berishini so‘raydi va yig‘lab eshitganini aytadi. Nevarani Chig‘atoy mahalladan chiqqan Jamol botir, Jamol emas Jaloliddin deydi.

Romanda Qora Unar, Raisa rais, Shomalik to‘ra kabi mahalla amaldorlari tasvirlanganki, ularning vazifasi mahalladagi buzilishga tushgan uylarning oila a‘zolarini ko‘chishga ko‘ndirish. Birinchi Doston ayaning hovlisi buzilishga

tushadi. Doston ayaning hovlisini olib o'rniga domdan uy berishni taklif qilishadi. Doston aya rozi bo'ladi, chunki aql-farosatli qizi oilasi buzilib, bolasi bilan uyga qaytib kelgani uchun qishloqda bosh ko'tarolmay qolgan edi. Doston ayaning hovlisini buzishganda arqon chiqadi. Hamma oltin chiqadi deb kutgan edi. Asar davomida arqonni oxirigacha tortib olisholmaydi. Arqon rango-rang bo'lib, ko'zni olar darajada tovlanar, tuproq ostidan chiqqaniga qaramay chang-g'uborsiz mohir chevarlar qo'lidan chiqqanday edi. Arqonni tortib chiqarmoqchi bo'lgan ekskavator arqon uchiga yaqinlashgach o'chib qolar, ketmon-u cho'qmor bilan olamiz degan manaman azamatlar nafas olishi og'irlashib holdan toya boshlardi. Arqon sehrli, mo'jiza edi. Yozuvchidagi kuzatuvchanlik, topqirlik, o'zgachalik hislati bolaligida shakllanganini Fazli bola tafakkuri bilan "Tilladan qimmat bo'lsa-chi bu arqon?!" degan mulohazasidan ayonlashadi. Najib dodaning arqon haqida mulohazasi bor: "... u tuproq ostidagi oddiy arqon emas, hikmatli arqon. Tortgan bilan chiqadigan arqon emas. Mahallaga emas, odamzodga yuborilgan arqon!.. Har kimning aqli yetavermaydigan, uzun tashlangan arqon. Odamlar ojiz, juda ojiz..." [1, 379-b.] Arqon – birlashtiruvchi, bog'lovchi, avlodlar davomiyligi, ota yeridan uzilmaslik, tug'ilgan yer muqaddasligi kabi tushunchalarni umumlashtirgan degan mulohazaga bordik. Insoniyat bitta tomirdan tarqaganligi, tomir yerning tagida ekaniligi va insoniyatning yer bilan hamnafasligi, jismining oxirgi manzili ham yerga qo'yilishi kabi mulohazalarni beradi. Insoniyat qadami yerdan uziladi, ammo ildiz uzilmaydi. Najib doda shuning uchun ham insonning ojizligini ta'kidlaydi.

Romanda o'yinga chaqiriq, bolalarni uyg'oqlikka chorlov nidolarini eshitamiz. Roman oxirida bu chaqiriq, chorlov yanada kuchayadi. Yozuvchi asarga yangi qahramon kiritadi. U o'sha mahallaga boshqa joydan kelgan, ijaraga joylashgan bolaning ismi Omad, Omadjon, Omadbek. Romanda bu qahramon mahallaning omadi, buzilishga tushgan mahalla bolalari va kattalarni uyg'oqlikka chorlovchi kuch hamda o'yinqaroq bolalarning kelajak davomchilari, uyg'oq insonlargina uyg'otuvchi va omad ulashuvchi bo'ladi degan mulohazaga bordik. U hali tong otmagan g'ira-shirada har kuni bitta bolaning ismini aytib chaqiradi, otiga atab azon aytadi. Chaqiriqni eshitgan bolalar o'zlarini ko'cha changitib yurgan bola emas, kattalardek his qiladi, jiddiy tortadi. Roman oxirida bu chaqiriq mahallaga yuzlanadi. Bu chaqiriqni Najib doda va Suydi muallim eshitishadi. Chaqiriqda to'rt marta chig'atoyliklarga, yoshi ulug'lar, bolakaylar va oxirida musulmonlar deb murojaat qiladi. Roman boshlanmasi "... Landi-landi..." o'yin boshlandi..." deb boshlansa, xotimasi kattalarning yangiligi – Najib dodaning ukasi Fattoh amakining "Xruchopni optashashdi" yangiligi bilan tugaydi. Romanning siyosiy olamda yangilik bilan tugashi bejizga emas. Tuzum siyosati oddiy insonlar hayotiga ta'siri va oddiy xalq hayoti, ilmi insonlarning davrni tahlil qila olishidan dalolat.

Xulosa. Adib X.Do'stmuhammad "O'yin" romanida bolalar va hayot o'yinlarini o'z bolaligi, ota-onasi, yaqinlari va o'rtoqlari hayotining ma'lum davri misolida hikoya qilib beradi. Bu hayot o'yinida kimdir yutadi va g'oliblik

nashidasini suradi, kimdir magʻlublik aziyatini chekib yashaydi. Inson hayoti oʻyinlar qurshovida oʻtadi. Hayot oʻyinida yutush va yutqazishlar almashinib turadi. Kimdir faqat goʻlib, kimdir faqat magʻlub boʻlib yashamaydi. Buni romanning xotimasidagi Fattoh amakining yangiligi isbotlaydi. Roman umr ataluvchi katta va kichik oʻyinlarga qurilgan jarayonda insonning shaxs sifatida shakllanishi, oʻzligini saqlab qolishida oila va jamiyatning rolini yana bir bor asoslab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doʻstmuhammad X. Oʻyin. – T.: Yangi asr avlodi, 2022.
2. Doʻstmuhammad X. Izhor. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Eshonqul N. Mendan “men”gacha. – T.: Akademnashr, 2014.
4. Joʻraqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II jild. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 124.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xurshid-dostmuhammad-aytmishlari-va-fiqralar.html>